



From English Oriental Studies to Global Turkic Poetics Research: Historical Evolution

Dilnoza UMURZAKOVA¹

Alisher Navoi's Tashkent State University of Uzbek Language and Literature

ARTICLE INFO

Article history:

Received July 2025
Received in revised form
10 August 2025
Accepted 25 August 2025
Available online
15 September 2025

Keywords:

Turkic poetics,
English Orientalism,
Navoi,
literary studies,
global research,
intercultural dialogue.

ABSTRACT

This article explores the evolution of Turkic poetics studies, beginning with the historical development of English Orientalism. It analyzes the contributions of English orientalists to the study of Turkic literature, the interpretation of Alisher Navoi's works, and the expansion of research approaches in the XX–XXI centuries. Special attention is given to modern research centers, international projects, and the future prospects of Turkic poetics in the context of global literary studies.

2181-3663/© 2025 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-3701-vol3-iss7/S-pp81-86>

This is an open-access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Ingliz sharqshunosligidan global turkiy poetika tadqiqotlariga: tarixiy evolyutsiya

ANNOTATSIYA

Kalit so'zlar:

turkiy poetika,
ingliz sharqshunosligi,
Navoiy,
adabiyotshunoslik,
global tadqiqotlar,
xalqaro muloqot.

Ushbu maqolada ingliz sharqshunosligining tarixiy shakllanish jarayonidan boshlab turkiy poetika tadqiqotlarining evolyutsiyasi yoritib berildi. Ishda ingliz sharqshunoslari tomonidan turkiy adabiyotning o'rganilishi, Navoiy ijodining talqini hamda XX–XXI asrlarda turkiy poetikaning global miqyosdagi ilmiy tadqiqotlari keng tahlil qilindi. Shuningdek, zamonaviy ilmiy markazlar va xalqaro loyihalarda turkiy poetikaning o'rganilishi va kelajak istiqbollari ko'rsatildi.

¹ Doctoral student, Alisher Navoi's Tashkent State University of Uzbek Language and Literature. Teacher, joint program of the Moscow Linguistic University. E-mail: umurzakovadilnoza3@gmail.com

От английского востоковедения к глобальным исследованиям тюркской поэтики: историческая эволюция

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

тюркская поэтика,
английское
востоковедение,
Навои,
литературоведение,
глобальные исследования,
международный диалог.

В данной статье освещена эволюция исследований тюркской поэтики, начиная с исторического становления английского востоковедения. Рассматриваются исследования английских востоковедов по изучению тюркской литературы, интерпретация творчества Навои, а также современные научные подходы к тюркской поэтике в XX–XXI вв. Особое внимание уделено деятельности современных научных центров, международных проектов и перспективам развития исследований в данной области.

KIRISH

Sharqshunoslik – bu Sharq xalqlari, ularning tillari, adabiyoti, madaniyati, dini, ijtimoiy tuzumi va tarixini ilmiy jihatdan o'rganishga qaratilgan fandir. Bu yo'nalish Yevropada XVII asrdan boshlab shakllana boshlagan bo'lsa-da, to'liq ilmiy maktab sifatida XVIII asr oxiri – XIX asr boshlarida mustahkamlandi [4].

Yevropa davlatlarining, xususan, Buyuk Britaniya, Frantsiya, Germaniya va Rossiyaning Sharq mamlakatlari bilan siyosiy va iqtisodiy aloqalari kuchayishi Sharqqa qiziqishning ilmiy asoslarda rivojlanishiga olib keldi [3]. Sharq tillarining o'rganilishi dastlab diniy maqsadlarda (Bibliya tarjimalari, missionerlik faoliyati), so'ngra diplomatik, savdo va siyosiy aloqalar ehtiyoji tufayli kengaydi. XVIII asrning oxirlarida ingliz sharqshunosi ser William Jones (1746–1794) tomonidan Hindistonda tashkil etilgan Asiatic Society of Bengal jamiyati Sharqshunoslikning alohida ilmiy sohaga aylanishida muhim rol o'ynadi [1]. Jones sanskrit, arab, fors va turkiy tillarni mukammal o'rganib, ularni qiyosiy tilshunoslik nuqtai nazaridan tahlil qildi. Uning ilmiy faoliyati ingliz sharqshunoslik maktabining poydevorini qo'ydi [5]. Shu tariqa, Sharqshunoslik dastlab kolonial siyosat bilan bevosita bog'liq bo'lsa-da, keyinchalik u mustaqil ilmiy sohaga aylandi. Ingliz sharqshunoslari Sharq xalqlarining boy adabiy merosi va tarixiga qiziqqa boshladilar. Ayniqsa, turkiy xalqlarning qadimiy yodgorliklari va klassik adabiyoti ingliz olimlarining e'tiborini tortdi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Ingliz sharqshunoslik maktabi asosan Hindiston va Markaziy Osiyo tadqiqotlariga tayanib rivojlandi. Bu jarayonda quyidagi olimlarning xizmatlari alohida ta'kidlanadi: William Jones – qiyosiy tilshunoslik asoschisi, turkiy tillarni ham hind-yevropa tillari oilasi bilan qiyoslagan. Edward Gibbon (1737–1794) – mashhur ingliz tarixchisi, o'zining “The History of the Decline and Fall of the Roman Empire” asarida turkiy xalqlarning Yevropa sivilizatsiyasi tarixidagi o'rniga to'xtalgan. John Malcolm (1769–1833) – Eron va Markaziy Osiyo tarixi bo'yicha qimmatli manbalar yaratgan, turkiy xalqlar siyosiy-madaniy hayotini tasvirlagan. George Sale (1697–1736) – Qur'onning ingliz tiliga dastlabki tarjimoni, uning izohlarida turkiy xalqlar va ularning diniy an'analari haqida ma'lumotlar bor. Arminius Vambery (1832–1913) – venger aslidan bo'lgan, biroq ingliz ilmiy

doiralarida mashhur sharqshunos. U Markaziy Osiyoga sayohatlar qilib, turkiy tillarni chuqur o'rgangan, o'z tadqiqotlarida xalq og'zaki ijodi va poetikasiga alohida e'tibor bergan [2]. Ularning faoliyati ingliz sharqshunosligining shakllanishida uch asosiy yo'nalishni belgilab berdi:

1. Tilshunoslik (qiyosiy tahlil, lug'atlar, grammatikalar).
2. Adabiyotshunoslik (tarjima, poetik tahlil, janrlar tadqiqi).
3. Tarix va etnografiya (xalqning urf-odatlarini, diniy qarashlari, madaniyati).

XIX asrdan boshlab ingliz sharqshunoslari turkiy xalqlar merosiga chuqurroq e'tibor bera boshladilar. Bu jarayonni uch bosqichga ajratish mumkin:

1. Tarjima faoliyati – turkiy adabiyot namunalari ingliz tiliga tarjima qilindi. Masalan, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Abdurahmon Jomiy asarlari qisqa parchalar holida ingliz jurnallarida chop etildi.

2. Filologik tadqiqotlar – turkiy tillarning grammatik qurilishi, she'riy shakllari, qofiya va aruz tizimi ingliz olimlari tomonidan o'rganila boshladi.

3. Madaniy-tarixiy izohlar – turkiy xalqlarning adabiy merosi ularning ijtimoiy-madaniy tarixiy jarayonlari bilan bog'liq holda sharhlanib, ingliz o'quvchilariga tanishtirildi.

Masalan, Vambery o'zining "Travels in Central Asia" (1864) asarida Buxoro, Xiva, Turkiston hududida yozilgan she'riy meros, xalq qo'shiqlari va tasavvufiy adabiyotni ingliz kitobxoniga tanishtirgan. Shuningdek, ingliz sharqshunoslari Navoiy ijodini o'rganishda uning poetik uslubi, qofiya tizimi va badiiy san'atlariga alohida e'tibor qaratdilar. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida ingliz sharqshunosligida turkiy poetikaning o'rganilishi yanada kengaydi. Bu davrda ilmiy yondashuvlar quyidagi yo'nalishlarda rivojlandi: Tilshunoslik asosidagi tahlil – turkiy poetik shakllar ingliz tilshunoslik an'anasi bilan qiyoslab o'rganildi. Estetik tahlil – Navoiy, Lutfiy, Sakkokiy kabi shoirlarning asarlarida timsollar, metaforalar va badiiy vositalar ingliz romantikasi bilan qiyosiy tahlil qilindi. Madaniy muloqot – turkiy poetika G'arb adabiy tafakkuri uchun "Sharqning estetik ovozi" sifatida talqin qilina boshladi. Bu davrda ingliz olimlari turkiy poetikaning G'arb adabiy nazariyalaridan farqli jihatlarini ham ko'rsatdilar. Masalan, Sharqda aruz tizimi asosida shakllangan she'riyat ingliz she'riyati uchun mutlaqo yangi hodisa edi. Shunday qilib, ingliz sharqshunosligi XIX–XX asrlarda turkiy poetikani ilmiy o'rganishga mustahkam poydevor yaratdi va keyinchalik global turkiy poetika tadqiqotlari uchun asos bo'lib xizmat qildi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

"Poetika" atamasi qadimgi yunon tilidan olingan bo'lib, "yaratmoq", "ijod qilmoq" ma'nolarini bildiradi. Yunon faylasufi Aristotelning mashhur "Poetika" asari adabiyot nazariyasining ilk poydevorini qo'ygan. Unga ko'ra, poetika – bu adabiy ijodning qonuniyatlarini o'rganuvchi ilmiy yo'nalishdir. Sharqda esa poetika tushunchasi arab adabiyotshunosligi va fors-tojik adabiy an'analari asosida rivojlandi. IX–XII asrlarda arab va fors olimlari – Ibn Qutayba, Jurjoni, Nizomiy Aruziy, Xalil ibn Ahmad kabi adabiyotshunoslar poetikaning nazariy asoslarini ishlab chiqdilar. Sharqda poetika til va badiiy san'atlar bilan chambarchas bog'liq bo'lib, aruz ilmi, qofiya ilmi va balog'at ilmlarini o'z ichiga olgan. Turkiy adabiyotning shakllanishida esa aynan shu Sharq poetik an'analari muhim o'rin tutdi. Qadimgi turkiy yozma yodgorliklardan boshlab, Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig", Ahmad Yugnakiyning "Hibat ul-haqoyiq" asarlarida poetik qoidalar o'z ifodasini topgan. Keyinchalik Alisher Navoiy bu an'anani yuksak cho'qqiga ko'tardi. Turkiy poetika bosqichma-bosqich shakllangan bo'lib, uni quyidagi davrlarga ajratish mumkin:

1. Qadimgi turkiy davr poetikasi (VI–X asrlar): Orxon-Enasoy bitiklarida poetik ifoda, parallelizm, ramziy obrazlar mavjud. “Bilga qaghan” va “Kultegin” bitiklari lirik-epik yo’sinda yozilgan bo’lib, xalq ruhiyati va tarixiy xotirani badiiy tarzda aks ettirgan.

2. O’rta asr turkiy adabiyoti (XI–XIV asrlar): Yusuf Xos Hojibning “Qutadg’u bilig” asari – didaktik poetika namunasi. Ahmad Yassaviy va tasavvufiy she’riyat – poetikaning diniy-falsafiy qirralarini yoritdi. Xorazmiy, Rabg’uziy, Lutfiy ijodida turkiy poetik shakllar mustahkamlandi.

3. Temuriylar davri va Navoiy maktabi (XV–XVI asrlar): Alisher Navoiy poetikani nazariy va amaliy jihatdan yuksak darajaga olib chiqdi. Uning “Mezon ul-avzon” asari aruz nazariyasining turkiy adabiyotdagi poydevori bo’ldi. “Muhokamat ul-lug’atayn” asarida Navoiy turkiy tildagi poetik imkoniyatlarni fors tilidan ustun qo’yadi.

Shunday qilib, Navoiygacha bo’lgan davr turkiy poetikasining shakllanish davri bo’lsa, Navoiy davrida u mukammal nazariy asosga ega bo’ldi.

Jadval 1.

Alisher Navoiy ijodi va ingliz sharqshunosligidagi o’rni va Chig’atoy adabiyotining inglizshunosligidagi talqini

Alisher Navoiy (1441–1501) turkiy adabiyotning eng yuksak namoyandasi bo’lib, uning ijodi nafaqat Sharqda, balki G’arbda ham qiziqish uyg’otgan. Ingliz sharqshunoslari XIX asrdan boshlab Navoiy asarlarini tadqiq eta boshladilar.	Chig’atoy adabiyoti – XV–XIX asrlarda Markaziy Osiyoda shakllangan turkiy adabiy maktab bo’lib, u ingliz sharqshunoslari uchun alohida ilmiy qiziqish uyg’otgan.
<u>Tarjima faoliyati:</u> Navoiy g’azallaridan ayrimlari ingliz tiliga tarjima qilindi. Uning “Layli va Majnun” dostoni ham G’arb kitobxoniga ma’lum bo’ldi.	<u>Til va poetika:</u> Ingliz sharqshunoslari Chig’atoy tilini “turkiy adabiyotning oltin davri” deb atagan. Bu tilda yaratilgan asarlarda aruz va qofiya tizimi mukammal ishlatilgan.
<u>Ilmiy tadqiqotlar:</u> Vambery va boshqa ingliz olimlari Navoiy ijodini turkiy adabiy tafakkurning cho’qqisi sifatida baholadilar.	<u>Shoir va mutafakkirlar:</u> Navoiy, Bobur, Mashrab, Ogahiy asarlari ingliz sharqshunoslik tadqiqotlarida keng tahlil qilingan.
<u>Poetik xususiyatlar:</u> Ingliz olimlari Navoiy ijodida quyidagilarga alohida e’tibor qaratganlar: Aruz tizimining turkiy tilga moslashtirilishi. Timsollar tizimi – bulbul, gul, shirin, majnun obrazlari. Tasavvufiy ramzlar – ishq, fano, vujud birligi. Navoiy ijodi ingliz sharqshunosligida “turkiy poetikaning nazariy asoschisi” sifatida talqin qilingan.	<u>Poetik shakllar:</u> G’azal, masnaviy, qasida janrlari ingliz olimlari tomonidan qiyosiy tahlil qilingan.

Ingliz sharqshunoslari turkiy poetikani ikki asosiy nuqtai nazardan o’rganganlar:

1. Filologik yondashuv: Til, qofiya, aruz tizimi, grammatik qurilish. She’riy shakllar (g’azal, qasida, masnaviy)ning tahlili. Lug’atlar va grammatik izohlar orqali poetik tuzilmalarni sharhlash.

2. Estetik yondashuv: Obrazlar tizimi va ramzlarning talqini. Sharq poetikasini G’arb adabiyot nazariyalari bilan qiyoslash. Turkiy poetikani “Sharq romantizmi” sifatida baholash.

Bu ikki yondashuv turkiy poetika tadqiqotlarini ingliz sharqshunosligi doirasida ilmiy asosga qo’ydi va keyinchalik global adabiyotshunoslikda kengayishiga zamin yaratdi.

Shunday qilib, turkiy poetika qadimiy davrlardan boshlab rivojlanib, Alisher Navoiy ijodida nazariy va amaliy jihatdan mukammal shaklga ega bo'ldi. Ingliz sharqshunoslari bu poetik merosni tarjima, tahlil va qiyosiy o'rganish orqali G'arb ilmiy jamoatchiligiga tanishtirdilar. Ularning tadqiqotlari turkiy poetikaning global miqyosda o'rganilishiga asos bo'lib xizmat qildi.

XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab turkiy poetika faqat ingliz sharqshunoslari emas, balki butun dunyo miqyosidagi turkologlar, filologlar va adabiyotshunoslarning e'tiborida bo'ldi. Avvaliga sovet sharqshunoslik maktabi bu borada yetakchi rolni bajargan bo'lsa, keyinchalik turkiy tilli mamlakatlar mustaqillikka erishishi bilan tadqiqotlar yanada kengaydi. XX asrda asosan matnshunoslik, qo'lyozmalarni kataloglashtirish, klassik poetik shakllarni tasniflash ustuvor bo'ldi. Masalan, Alisher Navoiy, Bobur, Mashrab, Ogahiy kabi shoirlarning qo'lyozmalari o'rganildi. XXI asrda esa tadqiqotlar interdisiplinar yo'nalishda davom etmoqda. Poetika lingvopoetika, madaniyatlararo muloqot, semiotika va postkolonial nazariya doirasida ham o'rganilmoqda.

Ingliz sharqshunosligida turkiy poetika asosan "ekzotik", ya'ni Sharqning o'ziga xosligini ko'rsatadigan obyekt sifatida o'rganilgan. Tahlil jarayonida G'arb nazariy kategoriyalari ustun bo'lgan. Turkiy an'anada esa poetika adabiy-estetik qadriyatlarni, badiiy san'atlarni va ma'naviy merosni asrab qolish vositasi sifatida qaralgan. Qiyosiy jihatdan qaraganda, ingliz olimlari ilmiy metodologiya va tasniflarda kuchli bo'lsa, turkiy olimlar asarlarga ruhiy-ma'naviy yondashuv bilan boyitilgan.

Bugungi kunda turkiy poetika quyidagi yo'nalishlarda jadal rivojlanmoqda:

– AQSh va Buyuk Britaniya universitetlarida turkologiya markazlari faoliyat yuritadi. Masalan, Harvard universiteti, SOAS (London), Cambridge universiteti.

– Turkiya, O'zbekiston, Qozog'iston, Ozarbayjonda maxsus ilmiy institutlar faoliyati kengaymoqda.

– Xalqaro loyihalar: UNESCO doirasida Navoiy, Bobur va boshqa turkiy allomalarning yubileyi nishonlanmoqda, bu esa poetika tadqiqotlarini global darajada targ'ib qilmoqda.

– Elektron resurslar: qo'lyozmalarni raqamlashtirish, matnlarni parallel tarjima qilish loyihalari keng rivojlanmoqda.

Turkiy poetika bugungi kunda global miqyosda madaniyatlararo muloqotning muhim qismiga aylanmoqda.

• Yevropada "oriental heritage" konsepsiyasi doirasida o'rganilsa;

• Osiyoda "milliy o'zlik" va "ma'naviy meros" tushunchalari asosida tahlil qilinmoqda.

• Shu bois, turkiy poetika global maydonda Sharq va G'arb o'rtasidagi madaniy ko'prik vazifasini bajarmoqda.

Kelgusida turkiy poetika quyidagi yo'nalishlarda rivojlanishi mumkin:

• Postkolonial yondashuv: Sharq adabiyotining G'arb nazariyasidan mustaqil talqini.

• Kognitiv poetika: turkiy adabiyotda obraz va metaforalarning inson tafakkuri bilan bog'lanishi.

• Raqamli gumanitar fanlar: matnlarni kompyuter dasturlari yordamida tahlil qilish, she'riy janrlarni statistik modellashtirish.

• Qiyosiy tadqiqotlar: turkiy poetikaning dunyo adabiyotidagi o'рни va o'ziga xosliklarini ko'rsatish.

XULOSA

Mazkur maqolada ingliz sharqshunosligi doirasida turkiy poetika tadqiqotlarining shakllanishi, rivojlanish bosqichlari va global miqyosda olib borilayotgan ilmiy izlanishlar keng qamrovda tahlil qilindi.

Umumiy natija shuki, ingliz sharqshunosligi turkiy poetikaning G'arbda tanilishiga katta hissa qo'shgan. Turkiy she'riyatning o'ziga xos estetik xususiyatlari ingliz olimlari tomonidan ilmiy jihatdan o'rganilib, bugungi global poetika tadqiqotlariga yo'l ochgan. Zamonaviy davrda esa turkiy poetika xalqaro miqyosda qiyosiy adabiyotshunoslik, madaniyatlararo muloqot va global estetika doirasida keng tadqiq qilinmoqda. Shunda qilib, ingliz sharqshunosligidan boshlangan turkiy poetika tadqiqotlari bugungi kunda dunyo adabiyotshunoslik ilmiy hamjamiyatida muhim o'rin egallagan va kelgusida yanada kengayishi, yangi ilmiy yondashuvlar bilan boyishi kutilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Abdullaev B. Turkiy adabiyot poetikasi. Toshkent, 2005.
2. O'zbek adabiy tanqidchiligi tarixi: darslik/B. Nazarov. 2-nashr. – T.: Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2023.
3. Hamidov H. Navoiy poetikasi va Sharq an'analari. Toshkent, 2021.
4. Robinson C. Islamic Historiography. Cambridge University Press, 2023.
5. William Jones. Works. Turkestan Down to the Mongol Invasion Oxford University Press, 2022.